

Rasmiy munosabat

Ijtimoiy tarmoqlar orqali viloyat hokimligi mutasaddilari tomonidan fuqarolar va tadbirkorlar murojaatlariga befarqlik qilinayotgani to'g'risida murojaat e'lon qilingan. Mazkur murojaatda aniq faktlar va holatlar keltirilmagan.

Viloyat hokimligi tomonidan fuqarolar murojaatlari, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilinayotgan har bir murojaat qat'iy nazorat ostiga olingan bo'lib, aniqlangan holatlar bo'yicha tegishli o'rganishlar o'tkazib borilmoqda.

Surxondaryo viloyati hokimligi ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari va blogerlarimizdan aniq faktlarga asoslangan murojaatlarni e'lon qilishlarini so'raydi va har bir masalada hamkorlikda ish olib borishga tayyor ekanligini ma'lum qiladi.